

DAVLAT BYUDJETI DAROMADLARINI SHAKLLANTIRISHDA SOLIQLARNING TUTGAN O‘RNI

Shirinbayeva Sevinch Faxriddin qizi

TDIU Samarqand filiali 2-bosqich talabasi

sevinchshirinbayeva9@gmail.com

Ilmiy rahbar: Togayev Salim Sobirovich

“Moliya, soliq va bank ishi” kafedrasi dotsenti, i.f.f.d.

Annotatsiya: Soliqlar eng muhim iqtisodiy kategoriya bo'lib, tarixan davlatning paydo bo'lishi, mavjudligi va faoliyati bilan bog'liq. Pul resurslarini safarbar qilish usuli, tabiati va ko'lami va ularni sarflash tegishli davlatni tug'dirgan jamiyatning iqtisodiy rivojlanish bosqichiga bog'liq. Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning o'ziga xos yo'nalishlari, shakllari, ko'lamlari ma'lum bir mamlakatda muayyan davrdagi iqtisodiy va ijtimoiy muammolarning tabiati va jiddiyligi bilan belgilanadi.¹

Kalit so'zlar: davlat byudjeti, davlat byudjeti daromadlari, soliqlar, sof daromad, soliqdan tashqari daromadlar.

Kirish.

— davlatning muayyan vaqt (odatda bir yil) uchun mo'ljallangan pul daromadlari va xarajatlari majmui. Davlat byudjeti davlat ixtiyoridagi pul fondlarining taqsimlanishini bildirib, u davlat moliyasining bosh bo'g'ini hisoblanadi.

2

Soliqlarning paydo bo'lishi va amal qilishi kishilik jamiyatining mavjudligi bilan chambarchas bog'liqdir. Soliqlar har bir davlat faoliyatining moddiy jihatlarini ta'minlaydi. Jahon iqtisodiyoti

“Soliq qanchalik ulkan bo'lmasin, agar u barchaga mutanosib ravishda belgilangan bo'lsa, u tufayli hech kim boyligining qandaydir qismini yo'qotmaydi. Bundan tashqari, yig'ilgan soliqlar mamlakatdan chiqib ketmas ekan, mamlakat boshqa mamlakatlarga nisbatan bir xilda boy bo'lib qolaveradi.” – deydi V.Petti o'z kitobida. Demak, Petti soliqlarni budjet daromadlarining asosiy manbayi sifatidagi rolini e'tirof etgan holda, soliqqa tortishning barcha soliq to'lovchilar uchun teng bo'lishini ta'kidlab o'tgan.³

M

a

v

Z

1 “DAVLAT BYUDJENTNI SHAKLLANTIRISHDA SOLIQ O'RNI” Rizayeva Kumush Mehriddinovna

2 Bräutigam, Deborah (2002). "Building Leviathan: Revenue, State Capacity and Governance". IDS Bulletin (Institute of Development Studies) 33 (3): 1–17. doi:10.1111/j.1759-5436.2002.tb00034.x

3 U.I.Inoyatov, G.N.Ahmadjonova “Budjet va budjet tizimi”

o

,

- soliqlarning byudjetga undirilishi mamlakat milliy daromadi va milliy boyligi manbalarining tugab borishiga olib kelmasligi;
- soliqlarning ularni to'lovchilar o'rtasida teng (adolatli) taqsimlanishi;
- soliqlarning ishlab chiqaruvchilar aylanma fondlari hajmiga salbiy ta'sir ko'rsatmasligi;
- soliqlarning sof daromadga nisbatan hisoblanishi;
- davlat uchun soliqlarning undirilishi arzoniga tushishi;
- soliqlarning undirilish jarayoni xususiy sektorni siqib chiqarmasligi, xususiy biznes subyektlarining soliq to'lashdan bosh tortishiga olib kelmasligi va xufya iqtisodiyotning yuzaga kelishiga sharoit yaratmasligi.

Davlat o'zining ehtiyojlarini qondirish manfaatidan kelib chiqib, soliq to'lovchilar daromadlarini istaganicha olib qoya olmaydi, soliqlarni byudjetga undirishning ma'lum chegarasi mavjud. Bu chegarani davlat soliq to'lovchilarning mahsulot ishlab chiqarish va foyda olishdagi faoliyatini hisobga olib belgilaydi. Taqsimlash jarayonlaridagi oqilona nisbatning buzilishi soliq to'lashdan bosh tortish, soliq bazalarini yashirish, xufyona iqtisodiyotga o'tib ketish kabi salbiy oqibatlariga olib kelishi mumkin.

Dunyoning boshqa mamlakatlari singari O'zbekiston Respublikasi davlat byudjeti tarkibida ham soliqlar salmoqli o'rinni egallaydi. Buni quyidagi jadval orqali ko'rib chiqishimiz mumkin.

1-jadval

Davlat byudjeti daromadlari tarkibi

Daromad nomlari	2021 – yil		2022 – yil		2023 – yil	
	summa	%	summa	%	summa	%
1. To'g'ridan-to'g'ri soliqlar - jami	58 930	35,8	64 447,1	31,9	73 103,6	31,5
1.1 Yuridik shaxslar foydasiga solinadigan soliq	38 363	23,3	37 649,9	18,7	40 778,9	17,6
1.2 Yagona soliq to'lovi	1 649	1,0	2 512,7	1,2	2 407,3	1,0
1.3 Shaxsiy daromad solig'i	18 918	11,5	24 284,5	12,0	29 917,4	12,9
2. Bilvosita soliqlar - jami	56 290	34,2	71 390,2	35,4	83 325,8	36,0

2.1 Qo'shilgan qiymat solig'i	38 439	23,3	52 189,4	25,9	57 885,3	25,0
2.2 Aksiz solig'i	13 087	7,9	13 455,0	6,7	15 834,4	6,8
2.4 Bojxona to'lovi	4 765	2,9	5 745,7	2,8	9 606,1	4,1
3. Resurs to'lovlari va mulk solig'i	23 036	14,0	23 912,8	11,8	28 079,5	12,1
3.1 Mulk solig'i	2 457	1,5	4 015,4	2,0	5 097,7	2,2
3.2 Yer solig'i	4 083	2,5	5 305,9	2,6	6 890,1	3,0
3.3 Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq	15 812	9,6	13 887,4	6,9	15 300,3	6,6
3.4 Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	684	0,4	704,1	0,3	791,4	0,3
4. Boshqa daromadlar va soliqlardan tashqari tushumlar	26 542	16,1	42 113,7	20,9	47 211,8	20,4
Jami budjet daromadlari	164 799	100	201 863,7	100	231 720,7	100

Yuqoridagi jadval ma'lumotlariga ko'ra bilishimiz mumkinki, davlat byudjeti daromadlarining 80 foizdan ortiq qismini soliqlardan tushgan tushumlar tashkil etadi. Ular orasida esa qo'shilgan qiymat solig'i, yuridik shaxslardan undiriladigan foyda solig'i, aksiz solig'i kabilar asosiy o'rinni egallaydi. Xulosa qilib aytish mumkinki, davlat soliq siyosatini yanada takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Eng avvalo, soliqlar milliy iqtisodiyotimiz rivoji uchun dolzarb hisoblansa, davlatning ijtimoiy zarur vazifalarini moliyaviy mablag'lar bilan ta'minlovchi vositadir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi. - T.: O'zbekiston, 2023.

2. Oetarjo M. et al. Online Reviews and Ratings Shape Purchasing Decisions in Indonesian E-Commerce //International Conference on Intellectuals' Global Responsibility (ICIGR 2022). – Atlantis Press, 2023. – С. 557-566.
3. Тогаев, С. (2019). Банк фаолиятини макропруденциал тартибга солишнинг услубий ва амалий хусусиятлари. *Scienceweb academic papers collection.*–2019.
4. Behzod ogli R. S., Togayev S. S. Iqtisodiyotni rivojlantirishda soliq tushumlarining maqsadi va vazifalari //Новости образования: исследование в XXI веке. – 2023. – Т. 2. – №. 16. – С. 222-225.
5. Rizayeva Kumush Mehriddinovna “Davlat byudjetni shakllantirishda soliq o'rni”
6. Тогаев, С. (2023). Analysis of indicators of financial stability of commercial banks on the basis of econometric model and assessment of the scale of influence. *The Journal of Economics, Finance and Innovation*, 707-713.
7. Bräutigam, Deborah (2002). "Building Leviathan: Revenue, State Capacity and Governance". *IDS Bulletin (Institute of Development Studies)* 33 (3): 1–17. doi:10.1111/j.1759-5436.2002.tb00034.x
8. Togayev, S., & Zayniddinova, D. (2023). Swot-the essence and methodological problems of analysis. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(4), 1003-1008.
9. U.I.Inoyatov, G.N.Ahmadjonova “Budjet va budjet tizimi”
10. Togayev, S., Ochilova, I., & Amanov, A. (2023). Tijorat banklarida muammoli aktivlarning yuzaga kelish sabablari va ularga ta'sir etuvchi omillar. *Iqtisodiy Taraqqiyot Va Tahlil*, 1(6), 80–85. <https://doi.org/10.60078/2992-877X-2023-vol1-iss6-pp80-85>
11. Ibodullayevich, B. T., & Sobirovich, T. S. (2022). Tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini ta'minlashning metodologik asoslari. *Current Issues of Bio Economics and Digitalization in the Sustainable Development of Regions (Germany)*, 152-159.
12. Тогаев, С. (2017). Distribution financial resources in the role of government. *Scienceweb academic papers collection.*–2017.
13. Novianti D. A. et al. Enhancing Buying Interest: Marketing Mix and Instagram's Impact on Lontang Lantung Drinks //3rd Annual International Conference on Natural and Social Science Education (ICNSSE 2023). – Atlantis Press, 2024. – С. 655-663.
14. Xujamurotov, S., & Togayev, S. (2023). The improvement of the macroprudential policy framework of the central bank of the republic of uzbekistan. *Interpretation and Researches*, 1(20).
15. <https://t.me/fiskaltahlil/473>
16. <https://lex.uz/docs/-4416401>